

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги



Мақтабгача
таълим
вазирлиги



Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги

МАҚТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК АҲАМИЯТИ халқаро илмий-амалий конференция

2020 йил 11-12 ноябрь
Самарқанд, Ўзбекистон



PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF SCIENTIFIC AND PRACTICAL INNOVATIONS IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATION

International scientific-practical conference

November 11-12, 2020
Samarkand, Uzbekistan

Самарқанд-2020

**“Мақтабгача таълим тизимини ривожлантиришда илмий-амалий
инновацияларнинг педагогик аҳамияти” мавзусида ўтказиладиган
Халқаро илмий амалий анжуманининг тахририй комиссияси
ТАРКИБИ**

| № | Ф.И.Ш. | Лавозими | Тахририй комиссияси лавозими |
|----------|---------------|---|---|
| 1 | Б.Ҳайдаров | Мақтабгача таълим факультети декани, п.ф.н.проф. | Комиссия раиси |
| 2 | Ш. Файзуллаев | Самарқанд Давлат университети мақтабгача таълим назарияси ва методикаси кафедраси, доценти, раис уринбосари | Комиссия раиси ўринбосари |
| 3 | Э. Марданов | Самарқанд Давлат университети мақтабгача таълим назарияси ва методикаси кафедраси, муdiri, аъзо | Аъзо |
| 4 | С. Зохидова | Самарқанд давлат университети мақтабгача таълим педагогика ва психологияси кафедраси муdiri, аъзо | Аъзо |
| 5 | Ш.Тайланова | Мақтабгача таълим педагогикаси ва психологияси кафедраси доценти, п.ф.д. | Аъзо |
| 6 | М.Разакова | Мақтабгача таълим назарияси ва методикаси кафедраси катта ўқитувчиси | Аъзо |
| 7 | С.Эльмонов | Самарқанд давлат университети , УТФ ва технологик таълим кафедраси муdiri, аъзо | Аъзо |
| 8 | О.Эшниёзов | Самарқанд давлат университети Мақтабгача таълим факультети касаба кумитаси раиси, аъзо | Аъзо |
| 9 | М.Рахматов | Самарқанд Давлат университети УТФ ва технологик таълим кафедраси доценти, аъзо | Аъзо |
| 10 | Ж.Кодиров | Самарқанд давлат университети Мақтабгача таълим факультети декан уринбосари, аъзо | Аъзо |
| 11 | Г.Холбоева | Самарқанд давлат университети жисмоний маданият назарияси ва методикаси кафедраси доктаранти, аъзо | Аъзо |
| 12 | У.Рашидова | Самарқанд давлат университети Мақтабгача таълим факультети Магистрлар ва иктидорли талабалар билан ишлаш буйича масъул, аъзо | Аъзо |
| 13 | Н.Муллажонова | Самарқанд давлат университети Санъатшунослик факультети кафедра муdiri, дизайн буйича масъул, аъзо | Аъзо |
| 14 | О.Имомқулова | Мақтабгача таълим назарияси ва методикаси кафедраси катта ўқитувчиси | Аъзо |
| 15 | Ш.Дониёрова | Мақтабгача таълим педагогикаси ва психологияси кафедраси ўқитувчиси | Аъзо |
| 16 | А.Каримова | Мақтабгача таълим педагогикаси ва психологияси кафедраси ўқитувчиси | Аъзо |

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilganda mashg'ulotlarni hissiy jihatdan boy va to'laqonli olib borish, bolalar bilimlarini nazorat qilish va sinash vaqtini qisqartirish imkoni beradi, bolalar nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlarini o'rganadilar.

AKTdan foydalanishning asosiy maqsadi: tafakkurni rivojlantirish; aqliy faoliyat usullarini shakllantirish.

Bundan tashqari, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'qituvchi, ham bolalar, turli xil o'quv va namoyish dasturlari, modellar, o'yinlar yaratishi mumkin. Bunday samarali ishlanmalar bolalarning bilim olishga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi, o'qish tezligini individual tanlash qobiliyatini shakllantiradi.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida pedagog quyidagi elektron ta'lim manbalaridan foydalanadi:

1. multimedia kurslari
2. mashg'ulotlar uchun taqdimotlar
3. mantiqiy o'yinlar
4. nazorat dasturlari
5. Internet manbalari
6. elektron ensiklopediyalar.

Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda bilish faoliyatni boshqarish uchun sarflangan mehnat o'zini har jihatdan oqlaydi:

- qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi
- pedagog va bolalar o'rtasida ijobiy psixologik muhitni yaratadi hamda ularning ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Kushakova Gulnora Egamkulovna
A.Qodiriy nomli JDPI maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrasida dotsenti v/b*

***Annotatsiya :** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyash metodlari hamda tamoyillari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Аннотация:** В статье представлена информация об особенностях использования фольклора в нравственном воспитании дошкольников, о методах и принципах нравственного воспитания дошкольников.*

***Annotation:** This article provides information on the specifics of the use of folklore in the moral education of preschool children and the methods and principles of moral education of preschool children.*

***Kalit so'zlar:** Maktabgacha, metod, xalq, ijod, tamoyill, milliy, fol'klor, axloq, vatanparvar, ma'lumot.*

Ключевые слова :Дошкольное учреждение, метод, люди, творчество, принцип, народность, фольклор, этика, патриотизм, воспитание.

Keywords :Preschool, method, people, creativity, principle, national, folklore, ethics, patriotism, education.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida biz yangi texnologiyalardan foydalanishimiz bilan bir qatorda an'anaviy ta'limni ham esdan chiqarmasligimiz zarur. Bolalarning milliy ruhda tarbiyalashimiz, milliy urf-odatlarimizni o'rgatishimizda ularni ma'naviy –axloqiy jihatdan tarbiyalashimizda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanmaslikni iloji yo'q. Sababi, o'zbek xalqi qadimdan mexnatkash, farzandlar tarbiyasiga juda qattiq e'tibor beradigan xalq bo'lgan. Bolalarga ta'lim –tarbiyada ko'proq xalq og'zaki ijodi bilan ta'sir qilish yo'lidan borganlar. Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan bo'lgan ertaklar bizga qo'l keladi. Sababi ertaklar barcha yoshdagi bolalarga birdek yoqadi va ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ertaklarning ta'limiy xamda tarbiyaviy ahamiyati katta.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Sababi, ushbu metodlar bolalarning axloqiy tasavvurlari hamda bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan barcha metodlar orqali bolalarga axloqiy normalar va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Bolalarda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bolalarga axloqiy tarbiya normalarini o'rgatayotganda ularni noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish mumkin emas. Bu o'rinda barcha metodlardan o'z o'rnida izchillik bilan kompleks ravishda foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda tushuntirish va namuna ko'rsatish metodidan foydalanish katta natija beradi.

Tushuntirish odatda bolalarga yangi axloqiy tushunchalarni, normalarni, axloqiy qonun –qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan, o'zidan kattalarga qo'lini ko'ksiga qo'yib "Assalomu alaykum" deb aytish va h. Tarbiyach axloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruhlarida qo'llashi mumkin. Suhbat uchun tanlanayotgan ertak yoki hikoyaning mazmuni yorqin, tushunarli bo'lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta'sir etishi kerak.

Axloqiy mavzulardagi ertaklardan namunalar ko'rsatish orqali bolalar axloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab boorish tarbiyachidan ziyraklik talab etiladi. Ertakdagi qahramonlarning hatti –harakatlarini tahlil qilish jarayonida bolalar o'z fikr-mulohazalarini aytishlariga o'rganadilar. Ertak qahramonlarining har bir xatti-



harakatini ongli ravishda, axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, multfilmlar tomosha qilishda, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg'otardi, shu bilan bir qatorda axloq qoidalari va normalarini singdirib boradi. Bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida turli xil metodlardan foydalaniladi.

1.rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotida axloqiy tarbiya berish metodlari


AXLOQIY TARBIYA METODLARI QUYIDAGILAR:

| | |
|--|--|
| <p>1-guruh. Axloqiy ongni, axloqiy tasavur va bilimlarni shakllantirishga metodlar.</p> | <ul style="list-style-type: none"> • bolalarning yaxshilik, yomonlik to'g'risidagi tasavurlarini e'tiborga olish; • axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan • vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; • har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish. |
| <p>2-guruh. Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar</p> | <ul style="list-style-type: none"> • Bu guruhga amaliy va o'yin metodlari Mashq -axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli usulidir. Eslatish — o'rgatilgan tajribani yangilash, nazorat o'rgatilgan odatning to'g'ri va samarali ekanligini tekshirishdir. O'z-o'zini nazorat qilish, bolani faollashtiruvchi shaxsiy gigiyena qoidalarini, ovqatlanish madaniyatini, ko'chada, bolalar bog'chasida xulq madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo'la oladi. |
| <p>3-guruh. Axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan metodlar.</p> | <ul style="list-style-type: none"> • Bu guruh metodlaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarini mustahkamlash, bola xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalanadi. Bunda tushuntirish, ishontirish, suhbat shakllari qulay bo'ladi. Tushuntirish bolalarni xulq qoidalari bilan tanishtirishda keng qo'llaniladi va ko'pincha ko'rsatish bilan bog'lab olib boriladi. Ishontirish tarbiyachining faoliyatida katta yordam beradi |

Tushuntirish metodining asosiy vazifasiga biz quyidagilar kiritdik:

- maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarini qoʻzgʻata olish, ertakdagi qahramonlarga hamdardlik bildirish — yutugʻidan quvonib, muvaffaqiyatsizligiga birgalashib achinish, undan hulosa chiqarishga oʻrgatish;
- 6-7 yoshli bolalarga tushunarsiz boʻlgan ayrim axloq normalari hamda qoidalarining mazmunini ochib berish hamda oʻzlariga tushunarli boʻlgan yoʻllar bilan tushuntirish;
- axloqiy mavzulardagi ertaklardan mashgʻulotlarda, sayrlarda, bolalarning oʻz hayoti bilan bogʻliq boʻlgan vaziyatlarda ham foydalanish va ularni toʻgʻri yoʻlga solish.

2.-rasm. Maktabgacha taʼlim tashkilotida bolalarga axloqiy tarbiya berish tamoyillari quyidagilardir.



Ertaklarning badiiy kuchi- uning namunaviy axamiyatga egaligidadir. Ertaklarda bolalarning yosh xususiyatlari alohida eʼtiborga olinadi.Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi. Shunday qilib, bolalarning axloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning ertaklar vositasida kattalar rahbarligidagi qizgʻin faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsida axloqiy xis-tuygʻularni tarbiyalashda barcha usullar va vositalardan oʻz oʻrnida qoʻllashi maktabgacha yoshdagi bolalarda ahloqiy sifatlarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ahloqiy sifatlarni tarbiyalashda tarbiyachi oʻz faoliyatida quyidagilarga amal qilishi lozim:

- ahloqiy mavzudagi ertaklarni bolalar ongiga yetkazishda tanlagan usullarida xonaning umumiy shart –sharoitini hisobga olsa;
- ertak syujetini boyituvchi holatlarni yarata olsa;
- ertak aytishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olsa;
- zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalardan unumli foydalansa;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ko’rgan va eshitgan ertaklari yuzasidan kichik suhbat tashkil etilsa va boshqalar maqsadga muvofiq bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, ertaklar juda katta tarixiy, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular qadim zamonlardan beri mavjud bo’lib, asrlar osha sayqallanib, tildan –tilga o’tib zamonaviylashib boraveradi. Ertaklarning yashovchanligiga sabab ham uning badiiy mukammalligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2707-sonli Qarori. O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017.

2. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped.fan.nom. ... diss. avtoref. - T.: 1998.- 18 b.

3. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo’g’irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish. - T., 2010. - 90 b.

4. Shodmonova SH. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nom. ... diss. avtoreferati. - T.: 2001. - 19 b.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ

*Дустов Жонибек Амриддинович,
Яхяева Сожида Абдурахимовна*

*Ўзбекистон Республикаси жисмоний
тарбия ва спорт вазирлиги ҳузуридаги
жисмоний тарбия ва спорт бўйича
мутахассисларни илмий-методик таъминлаш,
қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш
маркази Самарқанд филиали ўқитувчилари.*

Аннотация: *Мақсуд мақолада инновация, инновация тушунчаси, инновацион фаолиятни ташкил этиш, таълим жараёнига педагогик инновацияларни қўллаш каби масалалар ёритилган.*

Annotation: *This article discusses issues such as innovation, the concept of innovation, the organization of innovative activities, the application of pedagogical innovations in the educational process.*

Аннотация: *В статье рассматриваются такие вопросы, как инновации, концепция инноваций, организация инновационной деятельности, применение педагогических инноваций в образовательном процессе.*

| | |
|--|------------|
| <i>A.K.Ishonkulov</i> | |
| Maktabgacha ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish | 672 |
| <i>A.K.Ishonkulov</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari | 675 |
| <i>G.E. Kushakova</i> | |
| Таълим жараёнига инновацион технологияларни жорий этиш | 679 |
| <i>Ж.А.Дустов, С.А.Яхяева</i> | |
| Preschool education child psychology | 684 |
| <i>G.M.Karimova</i> | |
| Darsliklar - bolalarni kitobxonlikka o'rgatishning muhim omili | 687 |
| <i>G.J.Eshnazarova</i> | |
| Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari | 690 |
| <i>Ch.B.Abduraxmanova</i> | |
| Талабаларда билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришнинг замонавий шакллари | 693 |
| <i>P.X.Жиянкулова</i> | |
| Халқ ҳунармандчилигининг тарихий тараққиёти ҳамда ўрганиш ва ўргатиш педагогик муаммо сифатида | 696 |
| <i>С.С. Игамов</i> | |